

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| I.I.Rustamova | |
| Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi | 770 |
| G.H.Oxunova | |
| Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sultan hikoyalari misolida) | 773 |
| G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva | |
| Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri | 778 |
| G.Muhammadjonova | |
| Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari | 782 |
| Sh.D.Maxmidjonov | |
| Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida) | 787 |
| M.M.Xamidov | |
| O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli | 791 |
| O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova | |
| Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri | 795 |
| X.A.Abdulxamidova | |
| Isajon Sultan romanlarida inson xronotop sifatida | 799 |
| J.B.Sayidolimov | |
| "Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi | 803 |
| G.M.Oripova, G.G.Axmadaliev | |
| Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida) | 808 |
| I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev | |
| "Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini | 812 |
| S.F.Komilova | |
| Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini | 817 |
| O.A.Ahmadjonova | |
| Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi | 820 |
| A.A.Abduraxmonov | |
| O'zbek lirkasida nuring poetik funksiyasi | 824 |
| X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva | |
| "Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm | 828 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| S.N.Fazildinova | |
| "Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalaniishi | 831 |
| N.K.Ergasheva | |
| Goals and objectives of the training practice | 835 |
| O.A.Axmedova | |
| Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari | 838 |
| Sh.B.Karimova | |
| O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi | 841 |
| A.U.Akhmedova | |
| Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages | 844 |
| A.U.Akhmedova | |
| The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages | 850 |
| D.Ganieva, F.Khamidov | |
| The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages | 855 |
| Ш.Аскарова | |
| Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка | 859 |
| S.Kh.Azimova | |
| The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics | 863 |
| E.B.Yagyaeva | |
| Talabalar mustaqil ta'liming mohiyati, tuzilmasi va vazifikasi | 867 |
| E.B.Yagyaeva | |
| Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar | 870 |
| G.Shodieva | |

**O'ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY OBRAZ VA UNING IFODA USULI****HISTORICAL IMAGE IN UZBEK LITERATURE AND WAYS OF ITS EXPRESSION****ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБРАЗ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И СПОСОБЫ ЕГО ВЫРАЖЕНИЯ****Xamidov Mirolimbek Mansur o'g'li** 

Farg'onan davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Muhammad Alining "Mashrab" dostoni syujeti, kompazitsiyasi, band tizimi, ifoda usul va vositalari tahlil etilib, shoirning badiiy mahorati yoritib berilgan. Mazkur dostonda tasvirlangan o'smir Boborahim Mashrabning Namangandan Qashqarga – mashhur Ofqoxo'ja eshon dargohiga yo'l olishi, uning pirga nozir etilgan Gulguniga oshiq bo'lib sevgisiga sazovor bo'lishi, Ofqoxo'ja eshon esa Mashrabni ayovsiz jazolab dargohidan quvishl, so'ng qalandarlar to'dasi bilan Balxga kelishi va Mahmudbiy g'azabiga uchrab dorga tortilishi voqealari bayoni va har bir bandi sakkiz satrdan iborat bo'lgan, ikki qo'shiqqa bo'lingan, ularning har biri qirq besh banddan iborat dostonning tahliliga bag'ishlangan.

Аннотация

В данной статье анализируются сюжет, композиция, система строф, способы и средства выражения эпоса Мухаммеда Али "Машраб", освещается художественное мастерство поэта. В этом эпосе рассказывается о юном Баборахиме Машрабе, который направляется из Наманганы в Кашигар – к знаменитому ущелью Эшон Афакходжи, влюбляется в гульгун, над которой издаются на пиру, а Эшон Афакходжи изгоняет Машраба из ущелья, жестоко наказывая его, а затем с бандой каландаров прибывает в Балх и в гневе Махмудби затягивает его на виселицу, состоящий из восьми строк, два разделены на песни, каждая из которых посвящена анализу эпоса, состоящего из сорока пяти строф.

Abstract

This article analyzes the plot, composition, stanza system, ways and means of expressing the epic of Muhammad Ali "Mashrab", highlights the artistic skill of the poet. This epic tells about the young Baborahim Mashrab, who goes from Namangan to Kashgar – to the famous Eshon Afakhoji gorge, falls in love with gulgun, who is mocked at a feast, and Eshon Afakhoji expels Mashrab from the gorge, severely punishing him, and then with a gang of kalandars arrives in Balkh and in anger Mahmudbi drags him to the gallows. Consisting of eight lines, two are divided into songs, each of which is devoted to the analysis of the epic, consisting of forty-five stanzas.

Kalit so'zlar: dostonchilik, band, syujet, kompazitsiya, qofiya, badiiy mahorat, tasviriy vosita, badiiy ifoda, o'zbek she'riyati, til xususiyatlari.

Ключевые слова: поэма, глава, сюжет, композиция, рифма, художественное мастерство, изобразительное описание, художественное выражение, узбекская поэзия, языковые свойства.

Key words: poem, chapter, plot, composition, rhyme artistic competence, descriptive means, means of description, uzbek poetry, language features.

KIRISH

Muhammad Alining "Mashrab" dostoni birinchi bandi Alisher Navoiyning "Ollohollohol, ishq aro mundoq balolar bor emish..." satrlarini xatbosida keltirish bilan boshlanadi. Lirik qahramonning o'ziga xos nutqini tashkil etgan dastlabki bandning satrlari keyingi voqealarning lirik chekinishini tashkil etadi. Muallif uch yil ortga nazar tashlab voqealarni kinolentada ko'radi go'yo. Shirin xayollarning qo'llin tutgan beg'am o'spirin, dunyoning achchiq-chuchuklari begona yigit, orzular og'ushidagi Boborahim tasviri doston ikkinchi va uchinchi bandlari mazmunini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Ma'lumki, qozoq adabiyoti namoyandası Abay Qo'nанboyev tomonidan xalq she'riyatining nozik ritmik imkoniyatlardan foydalanib yaratilgan va o'ziga xos qofiyalarning tizimiga ega bo'lgan, har bandi sakkiz misradan tashkil topgan she'r shakli bor. Mazkur she'riy shakl qozoq adabiyotiga Abay tomonidan kiritilgani bois Abay she'ri deb ataladi. Abay she'rida barmoq tizimining asosan besh, yetti va sakkiz hajmli vaznlari qo'llaniladi, ya'ni uzun she'riy misralar yo yetti, yo sakkiz hajmli, qisqa misralar esa ko'pincha besh hajmli bo'ladi. Abay o'zi kashf etgan bu she'riy shaklda "Segiz ayaq" nomli asarini ham yozgan bo'lib, Abay she'ri ba'zan shu nom bilan ham yuritiladi [3,17].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muhammad Ali qozoq she'riyatidagi ana shu bandlanishga yangicha yondashadi va o'n bir hijodan iborat sakkiz satrli band tizimidan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida doston syujeti ifodasida xilma-xil lirik kartinalarning bandlar davomida almashinib borishi uchun qulaylikni yuzaga keltirgan. Shuningdek, xalq orasida turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan Boborahim Mashrabning dolg'ali hayotini hamda shu vositasida muallifning falsafiy qarashlarini ifodalanishida ham qulaylikni yuzaga keltirgan.

Dostonning to'rtinchı bandidagi

Ikki mantaqadan yaralgan hayot:
Zulmatdan-qora, yorug'likdan-oq
Ikki rang bor ekan, inson umrbod
Ufqqa intilar, ufq esa yiroq.
Umid chorlaganda go'yoki chiroq,
O'lim barchasini etguvchi barbod.
Qora rang – qabriston alomatiday,
Oq – yorug' dunyoning karomatiday (2, 69-70), –

tarzidagi hayot va o'lim, ezzulik va yovuzlik, zulmat va yorug'lik, umid va tushkunlik, yaralish va tanazzul kabi hodisa, tushuncha, fazilat hamda qusurlar haqidagi fikr ranglar timsolida yoritiladi. Muallifning ranglar vositasidagi falsafiy fikrlari ifodasi dostonning birinchi qo'shig'i o'ninchisi, yigirma oltinchi, ikkinchi qo'shiqning yigirma oltinchi, qirq beshinchi bandlarida ifodalangan. Boborahim Mashrabning qadron yurtini tashlab olislarga yo'l olishining sababini "Oq rangni axtarar tegrasi butkul Qora rang to'rida yotardi hali. Qaydasan, oq rang, ey! Holing so'rgali, Yigit olislarga solmoq bo'ldi yo'l; Seni olislarda topsa u zora! Yurakning mayli shu, yo'q o'zga chora" (2,71) tarzda izohlaydi. Yoki, doston ikkinchi qo'shig'i yigirma oltinchi bandida Mashrabning hayot zarbalariga duch kelib qalandarlar to'dasiga qo'shilganidan keyingi xulosalari ifodasi sifatida

... El kezib,
Cho'l kezib yurdim men hanuz,
Ko'rdimki, dunyoning doim biri kam.
Zor bo'lib izladim oq rangni, afsus,
Dunyo qora rangga bo'yagan ekan.
Endi barchasi ham jonimga tekkan,
Tinglashga quloq yo'q, yo'q ko'rgali ko'z.
Izladim – topmadim, umr o'tdi uvol,
Qusur Zamondadir? Menda ehtimol? (2, 97) –

misralarida ifodalanadi. Yoki, dostonning so'nggi qirq beshinchi bandi muallifning asar vogeliqi talqinidagi uslubi bilan bog'liq fikrlariga bag'ishlangan. Muallif Boborahim Mashrabning xalq orasida tarqalgan, ba'zan bo'rttirib talqin etilgan hayoti qirralarini emas, balki o'quvchini ishontiradigan, real, hayotiy kechmishi lavhalarini yoritishni afzal biladi. Bu esa dostondagi ta'sirchan, realistik tasvirni yuzaga chiqargan.

Muallif tarixiy haqiqatdan chekinmagani holda Boborahim Mashrab hayotining ayrim lavhalarinigina haqiqoni aks ettirishni maqsad etganligini dostonning so'nggi "... O'quvchim, tugadi qayg'uli qissam, Qayg'uli chiqishin istabmi edim? Zor, hazin ruhida yo'q zarra hissim, Lekin quyoshli ham bo'lmasin dedim. Zotan, shoir umri o'tdi-ku yetim, Yorug'lik ko'rmayin. Bu – haq. Alqissa, Do'stim, menga huquq berilgan emas Qurani oq qilib ko'rsatmakka. Bas!" (2,103) tarzidagi satrlarida ifodalanadi. Yuqoridaq bandlarda talqinini topgan qora va oq rang bilan bog'liq timsollar haqiqat va yolg'on,adolat va adolatsizlik, hayot va o'lim, umid va sarob ziddiyati ifodasida muhim

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'rın tutgan. Qora va oq rang haqidagi ifodalarning goh Boborahim Mashrab, goh doston muallifi nutqi orqali berilishi syujet ta'sirchanligini, asar leytmativini belgilab beradi. Umrini oq rang bilan bezamoqchi bo'lgan Mashrab va Gulgun, hayotdan nur qidirgan qalandarlar Mardon, Xol, pahlavonlar Sher, Mamasoli, arqonchi Karim kabilar ezgulik kushandalari, Zulmat timsollari Ofoqxo'ja eshon, Mahmudbiy tufayli rushnolik ko'rmaydilar. Mashrab va Gulgun (garchand ismi badiiy to'qima mahsuli bo'lsa-da), Ofoqxo'ja eshon, Mahmudbiy tarixiy, Mardon, Xolboy, Sher, Mamasoli, Karim arqonchi badiiy to'qimaning mahsuli bo'lgan obrazlardir. Shuningdek, Mashrabning Namangandan Qashqarga Ofoqxo'ja eshon dargohiga borishi, murid tutinib unga tortiq qilingan nazirani sevib, sevilishi, shu tufayli ayovsiz jazolanib quvilgandan so'ng qalandarlar to'dasi bilan Balxga borishi, Mahmudbiy buyrug'i bilan dorga tortilishi doston voqealaridagi ta'sirchanlikni oshirgan.

Dostonda Boborahim harakteriga xos jihatlar birinchi qo'shiqning yettinchi, sakkizinch, o'ttiz to'qqizinch, qirqinch, qirq birinchi, qirq ikkinchi, qirq uchinchi, ikkinchi qo'shiqning o'ttiz ikkinchi, o'ttiz uchinchi, o'ttiz to'rtinchi, o'ttiz beshinchi bandlaridagi tasvir va dialoglarda o'z ifodasini topgandir. Ularda Boborahim Mashrabning tinim bilmas va o't olov, xayolchan va tikso'z, haqiqatparast, va jasur xarakteri, darveshona qiyofasi izchil aks eta boradi. Masalan, uning tinib-tinchimasligi "Bir dam xayolparast, bir dam shoshqaloq, O'zin o'tga-cho'qqa uradi yigit. Bir dam o'rgimchakday hammadan yiroq. Bir dam parvozga shay, xuddi sorburgut" (2,70) tarzda aks etsa, xayolchan qiyofasi "Goho tengqurlarin davrasidan u Xayolchan ko'zlarni izlar negadir. Emish: gar ko'zlarda sollansa qayg'u Hayot ul kimsadan topgusi qadr. Bilolmas: nima bu, sehrmi, mehr – Lablarda o'ynar-da yumshoq bir kulgu Beta'sir, bema'no tarmular ko'zlar... U yolg'iz o'ziga haq edi, do'stlar" (2,71) misralarida ifodalangan.

Mashrabning hozirjavob va haqgo'yligi, to'g'riso'z va qo'rmasligi Ofoqxo'ja eshonga "Sevgi dilga tashrif buyursa agar, Ollohnning xohishi! Emas-ku gunoh? Kishi ko'nglidagin gapirsa agar, Ustozning koyishi emasmi gunoh?", "Degayman, boshimga kelsa ham o'lim, Sevdim, pir, xudoning ojiza qulin" (2,82); "Har sallador odam o'zin negadir Xudo deb sanaydi! Siz ham ehtimol...", "Do'zax emish! Siz ham, topguvchi zavol, Hammaday gunohkor bandasiz, axir! Nechuk, xo'sh, gar bo'lsa hoziq xudoyim, Valiylik da'vosin qilasiz doim?", "Teringiz shunchalar yupqami, pirim Ko'chkin sel misoli shiddatli umr Shunday, aytavermas har kimga sirin. Ojiz e'tiqodning bo'lib asiri, Nochor umidlardan kim izlar huzur? Hammamiz gunohkor bandamiz, pir, ha... Ketdim! O'tgan kunlar boshidan sadqa!" (2,83) satrlarida ifodalanganadi. Yoki, ikkinchi qo'shiqning qirqinch, qirq birinchi bandidagi Mahmudbiy bilan bo'lgan munozarada Boborahimning tikso'z, jasur, bukilmas qiyofasi yanada yorqinroq namoyon bo'ladi:

Qatag'on ne desa – amrim vojibdur!
Shamollar xush ko'rgay afsonalarni!
Mahmudbiy necha bor o'tib, bosibdur
Sen o'sha bosh urgan ostonalarni!
Yaxshi bilmayman-da devonalarni,
Ular-chun koshona, axlatxona – bir.
Qatag'on sanchiydi faqat demas dod,
Uch bor qarsak urar! Kiradi jallod.
Mayli! Safsatalar to'xtasin bir zum
To'ydan so'ng qo'yarsiz o'sha xinoni.
Shoshilmoq ne hojat, payt kelar o'zim
Qoldirib ketarman sizga dunyonni!
Boshga toj etarsiz fahshu zinoni,
Benarvon urursiz nafs yulduzin...
Xudo hurmati-chun qilaman farmon:

Dorga os badbaxtni! Olib bor, Salmon! (2,102) –

satrlarida shoir o'zining qat'iyati, haqgo'yligi bilan Mahmudbiyni ma'nан mag'lub etadi. Shu bois ham muallif doston ikkinchi qo'shig'ini Plutarxning "Shoirlar shohlardan yuqori turgay" degan so'zlarini xatboshida keltirish bilan boshlashi bejiz emas.

Muhammad Ali doston bandlarini sakkizlikdan iborat qilib belgilaydi. Bu izchillik faqat birinchi qo'shiqning o'n ikkinchi, qirq to'rtinchi, ikkinchi qo'shiqning uchinchi, to'rtinchi, o'n

sakkizinchi bandlaridan so'ng Mashrab kechinmalari, qalandarlar tasvirida buzilganini ko'ramiz. Ma'lumki, katta poetik fikr va xulosalar aytish sakkizlik uchun xos bo'lib, rus adabiyotida Pushkin, Lermontov, Yesenin, avar shoiri Gamzatov sakkizlikning o'ziga xos namunalarini yaratganlar. G'arb adabiyotida sakkiz bandlanishli she'r turi Oktava Bakachcho, Aristo, Tassolar ijodida uchraydi. Oktavada bandlar a-b-a-b-a-b-v-v tarzda qofiyalanadi. Sharq mumtoz adabiyotida musammanlar ham sakkizlik banlanishga egaligi bilan ajralib turadi. O'rta asrlar fransuz she'riyatida triplet deb ataluvchi a-b-a-a-b-a-b shaklida qofiyalanuvchi sakkiz misradan iborat she'riy janr ham bo'lgan. Rus she'riyatida tripletning namunalarini F.Sologub, I.Rukoveshnikovlar yaratganlar. Muhammad Ali mazkur dostonda bandlanishning biz yuqorida tilga olgan an'analaridan ijodiy foydalanadi hamda a-b-a-b-b-a-v-v tarzagi qofiyalanish tizimini qo'llaydi.

Dostondagi turli tasviriy vosita va ifodalar: o'xshatish, taqqos, qarshilantirish, jonlantirish kabilar obraz va personajlar harakteri, qiyofasi, holatlari talqinida muhim o'rinn tutgan. Masalan, Boborahim Mashrabning Ofoqxo'ja eshon dargohida yurgandagi ichki, ziddiyatlarga boy kechinmalari "Sho'rikn tutqusiz yugurik ohu – Xayollar yigirma ikki yoshida Temir qafasiga etganda bandi, U o'tin bo'ldi-yu, xayollar – tandir" (2,77) tarzidagi taqqoslarda ifodasini topsa, mumtoz she'riyatimizdagi ruju' san'atini yodga soluvchi misralardagi muallifning falsafiy fikrlari "Ilhom, ha ilhomni etmagil kanda, Bilgilki, azaldan bor shunday rasm: Ilhomga roz aytgan oshiq dil, inon, Sevgida tolsin topmog'i gumon" tarzda ifodalanadi. Fikr ritorik so'roq va anoforik kompazitsiya asosidagi

Yo'qsa, tug'ilarmi shoir degan zot,
Yo'qsa, taralarmi mung ila g'amlar?
Yo'qsa, moziyadagi Shirinu Farhod –
Alisher qalbidan chiqmish alamlar (2,77), -

tarzida yanada kuchli ifoda va ohanglarda aks etadi. Yuqoridagi misralarda talmeh san'atidan ham mohirlilik bilan foydalanilgan.

XULOSA

Muhammad Alining mazkur dostoni XX asr o'zbek adabiyotida Mashrab obrazini realistik aks etirgan, liro-epik yo'sinda talqin qilgan asar sifatida katta ahamiyatga ega. U tarixiy mavzudagi dostonchilik taraqqiyotiga munosib ulush bo'lib qo'shildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasi. – Toshkent, 2017.
2. Мұхаммад Али. Достонлар. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1974.
3. Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи; 1979.